(6). M.A.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss., Toshkent, 2016, 310-bet.

(7). G.T.Boymurodova. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi. 2020, 286-bet.

(8). Sh.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda. Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlashning pedagogik mazmuni. "FarDU Ilmiy xabarlari", 2024, 3, 205–209-betlar.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo'qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI – HUSNI XULQIMIZNI SHAKLLANTIRUVCHI MANBA SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Darsliklardagi matnlarning mavzuiy mazmuni, hajmi, bezatilishi va didaktik imkoniyatlari ilmiy-amaliy asosda yoritilgan. Tadqiqot xarakter tarbiyasi va ijtimoiy o'rganish nazariyalari asosida boyitilgan bo'lib, darslik orqali o'quvchilarda husni xulqni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan hamda amaliy tavsiyalar asosli keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *darslik, matn, ma'naviyat, husni xulq, boshlang'ich ta'lim, didaktika, ta'lim, tarbiya, bezak, illyustratsiya, o'quvchi, metodika, xarakter tarbiyasi, ijtimoiy o'rganish nazariyasi.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

УЧЕБНИКИ ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ – КАК ИСТОЧНИК ФОРМИРОВАНИЯ ДОБРОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация. *В статье анализируется роль учебников по родному языку и чтению для начальной школы в духовно-нравственном воспитании ученика. На научно-практической основе рассмотрены тематическое содержание, объем, оформление и дидактические возможности текстов в учебниках. Также особое внимание уделено вопросу формирования доброго характера у учащихся посредством учебника и даны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *учебник, текст, духовность, добрый характер, начальное образование, дидактика, образование, воспитание, оформление, иллюстрация, ученик, методология.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS AS A SOURCE FOR DEVELOPING GOOD CHARACTER

Annotation. *This article analyzes the role of primary school textbooks on native language and reading in the spiritual and moral development of students. Using a scientific and practical framework, the thematic content, length, format, and didactic potential of texts in textbooks are examined. The study is further grounded in character-education and social-learning theory. Particular attention is also paid to the development of good character in students through textbooks, and practical recommendations are provided.*

Keywords: *textbook, text, spirituality, good character, primary education, didactics, education, upbringing, formatting, illustration, student, methodology, character education, social learning theory.*

Kirish. Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchi shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darsliklari bolalarda nafaqat nutq ko'nikmalarini, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarni ham shakllantiradi, shu ma'noda darsliklar "ma'naviy tarbiya vositasi" sifatida qaralishi lozim. Darsliklardagi matnlar orqali o'quvchilarda yaxshilik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlar shakllantiriladi, bu esa ta'lim mazmunini nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyalovchi tizim sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi milliy darajada ham tasdiqlangan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi yosh avlodda vatanga sadoqat, mehr-oqibat, mas'uliyat kabi tayanch fazilatlarni bosqichma-bosqich, jumladan, boshlang'ich sinf davridan boshlab shakllantirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan [6], shu bois boshlang'ich sinf darsliklarining mazkur vazifani qay darajada bajarayotganini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang'ich ta'lim va darslikshunoslik sohasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, darslik mazmuni va uning tarbiyaviy ahamiyati masalalari[1;7;8] tadqiq etilgan. Pedagogik tadqiqotlarda darslik faqat bilim manbayi emas, balki shaxsni tarbiyalovchi vosita sifatida qaraladi [3;78-b.]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda darslik dizay-

ni, illyustratsiyalari va matn hajmi o‘quvchilarning qabul qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ma’naviy tarbiya masalasining milliy zaminini Sh.Mirziyoyev belgilab bergan bo‘lib, unda ma’naviyat millat taraqqiyotining tayanch omili sifatida ko‘rsatilgan [5]. D.Abdullayeva tadqiqotida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan, bu esa darslik orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonning o‘qituvchi omili bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [1].

Nazariy asos. Tadqiqotning nazariy negizini ikkita xorijiy psixologik-pedagogik nazariya tashkil etadi, ular darslik matnlari orqali husni xulq shakllanishi mexanizmini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Birinchisi – Tomas Likonaning xarakter tarbiyasi nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra axloqiy tarbiya uch o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat: axloqiy bilim (nima yaxshi-yu nima yomonligini anglash), axloqiy tuyg‘u (yaxshilikka ichki ehtiyoj va qoniqish hissi) va axloqiy xatti-harakat (bilim va tuyg‘uning amaliy xulqda namoyon bo‘lishi) [3]. Ushbu model darslik matnlarini baholashda foydali mezon bo‘la oladi: samarali tarbiyaviy matn o‘quvchida nafaqat tushuncha (masalan, rostgo‘ylik nima ekanini bilish), balki hissiy munosabat va xulqiy ko‘nikmani ham shakllantirishi lozim.

Ikkinchisi – Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra, bola xulqni bevosita tajriba orqali emas, balki atrofdagi namunaviy obrazlarni kuzatish, esda saqlash va takrorlash orqali ham o‘zlashtiradi [2]. Ushbu nazariya darslik qahramonlarining tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asoslaydi: adabiy qahramon qanchalik yorqin va bolaga yaqin tasvirlansa, uning xulq-atvor namunasi sifatida o‘zlashtirilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Darslik bezatilishi – matn-illustratsiya uyg‘unligini baholashda Richard Mayerning multimediali o‘qitish nazariyasidan foydalanish mumkin. Inson axborotni vizual va verbal kanallar orqali parallel qayta ishlaydi, shu bois matn bilan uyg‘unlashgan, ortiqcha yuklamasiz rasm ta’lim samaradorligini oshiradi, nomuvofiq yoki ortiqcha bezak esa aksincha idrok etishni qiyinlashtiradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez; qiyosiy tahlil; pedagogik kuzatish; didaktik modellashtirish, yuqorida keltirilgan xarakter tarbiyasi va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari tahlil uchun konseptual asos sifatida qo‘llanildi; boshlang‘ich sinf darsliklari mazmuni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

1. Darslik matnlarining mazmuniy xususiyatlari. Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi matnlar, avvalo, o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi lozim: qisqa, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, tarbiyaviy mazmunga ega matnlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: mehnatsevarlik, do‘stlik, rostgo‘ylik mavzusidagi matnlar bolalar ongiga tez ta’sir qiladi va ularning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

2. Matn hajmining didaktik ahamiyati. Darslikdagi matnlar hajmi o‘quvchining qabul qilish imkoniyatiga mos bo‘lishi zarur. Juda katta hajmli matnlar diqqatni susaytiradi, kichik matnlar esa mazmunni to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shuning uchun optimal hajmdagi matnlar tanlanishi metodik jihatdan muhim hisoblanadi [1;25-b.].

3. Darslik bezatilishining psixologik ta’siri. Darslik dizayni, ranglar, illustratsiyalar o‘quvchi qiziqishini oshiradi. Illustratsiyalar matn mazmunini to‘ldirib, uning tushunishini osonlashtiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rangli va chiroyli bezatilgan darsliklar bolalarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi [4;56-b.]. Bu holat Mayerning matn-rasm uyg‘unligi prinsipi bilan ham izohlanadi [4].

4. Husni xulqni shakllantirishda darslikning roli. Darsliklardagi matnlar orqali o‘quvchilarda quyidagi fazilatlar shakllanadi: odob-axloq; vatanparvarlik; mehr-oqibat; mas’uliyat. Bu jarayonda ayniqsa badiiy matnlar muhim ahamiyat kasb etadi. Likonaning xarakter tarbiyasi modeli nuqtayi nazaridan, bunday matnlar samarali bo‘lishi uchun ular faqat axloqiy tushuncha bermasdan, o‘quvchida hissiy kechinma uyg‘otishi va xulqiy namunani taklif etishi lozim [3].

5. Illustratsiya va matn uyg‘unligi. Matn va rasm o‘rtasidagi uyg‘unlik o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Agar rasm matn mazmuniga mos kelsa, o‘quvchi uni tezroq anglaydi, bu borada multimediali o‘qitish nazariyasi ko‘rsatadiki, so‘z va tasvirning mazmunan bir-birini to‘ldirishi xotirada saqlanishni sezilarli darajada yaxshilaydi [4].

6. Darslikning umumiy hajmi va tuzilishi. Darslikning umumiy hajmi ham muhim omildir: ortiqcha yuklama o‘quvchida charchoqni keltirib chiqaradi, shuning uchun darslik mazmuni ixcham va tizimli bo‘lishi lozim.

7. Amaliy natijalar. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mazmunan boy va estetik jihatdan puxta ishlangan darsliklar oʻquvchilarning: oʻqishga qiziqishini oshiradi; nutqini rivojlantiradi; maʼnaviy kamolotini taʼminlaydi.

8. Darslik matnlarining tarbiyaviy-psixologik taʼsiri. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida qabul qilish jarayoni, avvalo, emotsional-obrazli tafakkurga asoslanadi, shuning uchun darsliklardagi matnlar nafaqat axborot berish, balki hissiy taʼsir koʻrsatish xususiyatiga ham ega boʻlishi lozim. Psixologik tadqiqotlarga koʻra, bolalar badiiy va hayotiy voqelikka yaqin matnlarni tezroq qabul qiladi va ular orqali berilgan gʻoyalarni oʻz xulq-atvoriga singdiradi [4;62-b.]. Shu nuqtayi nazardan, darsliklarda qahramonlar obrazi orqali namunaviy xulq-atvorni koʻrsatish samarali hisoblanadi – buni Banduraning ijtimoiy oʻrganish nazariyasi kuzatish, eslab qolish, takrorlash va ragʻbatlantirilish zanjiri orqali ilmiy izohlaydi [7].

9. Milliy qadriyatlarni singdirishda darslikning oʻrni. Darsliklar orqali milliy anʼana va qadriyatlarni singdirish muhim vazifalardan biridir: ona tili darsliklarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari, maqol va matallar, rivoyatlardan foydalanish oʻquvchilarning milliy oʻzligini anglashini kuchaytiradi. “Kattani hurmat qil, kichikka izzatda boʻl” kabi mazmundagi matnlar orqali bolalarda ijtimoiy munosabat madaniyati shakllanadi, bu ularning kelgusi ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi [3;91-b.]. Bunday matnlar “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya” konsepsiyasida belgilangan vatanga sadoqat va mehr-oqibat kabi tayanch fazilatlarni shakllantirish vazifasini ham amalda roʻyobga chiqaradi [7].

10. Darslik va nutq rivojlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlik. Darsliklardagi matnlar oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda asosiy manba hisoblanadi. Matnlarni oʻqish, qayta hikoya qilish, savollarga javob berish orqali bolalarning: lugʻat boyligi; nutq madaniyati; fikrlash qobiliyati rivojlanadi; dialogik va monologik nutqni shakllantirishda matnlar asosiy didaktik vosita sifatida xizmat qiladi [1;58-b.].

11. Interaktiv yondashuv va darslik mazmuni. Zamonaviy taʼlimda interaktiv metodlar muhim oʻrin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, darsliklarda faqat matn emas, balki savol va topshiriqlar, ijodiy mashqlar; muammoli vaziyatlar ham berilishi maqsadga muvofiq, bu oʻquvchilarni faol fikrlashga undaydi va ularning mustaqil bilim olish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

12. Darsliklarda vizual materiallar samaradorligi. Illyustratsiyalar, sxemalar va jadvallar oʻquvchilarning vizual xotirasini faollashtiradi, boshlangʻich sinfda rasmlar orqali tushuntirish samarali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, matn va vizual material uygʻunligi bilimni oʻzlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi [4;70-b.].

13. Darsliklarni takomillashtirish muammolari. Amaliy kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, ayrim darsliklarda: matnlar hajmi ortiqcha; illyustratsiyalar mazmunga toʻliq mos emas; mashqlar tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu taʼlim samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, shuning uchun darsliklarni ishlab chiqishda kompleks yondashuv talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga koʻra, quyidagi xulosalarga kelindi: darsliklar oʻquvchi shaxsini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi; matn mazmuni tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlishi lozim, darslik bezatilishi estetik talablarga javob berishi kerak, matn hajmi oʻquvchi yoshiga mos boʻlishi zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalarni bayon etish mumkin. Birinchidan, boshlangʻich sinf darsliklari oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi kompleks vosita hisoblanadi, u nafaqat bilim beradi, balki tarbiyalaydi va shakllantiradi. Ikkinchidan, darsliklardagi matnlar mazmunan boy, tarbiyaviy jihatdan taʼsirchan va yosh xususiyatlariga mos boʻlishi zarur. Uchinchidan, darslik bezatilishi va vizual materiallar oʻquvchilarda qiziqish uygʻotuvchi muhim omildir. Toʻrtinchidan, interaktiv topshiriqlar va ijodiy mashqlar darslik samaradorligini oshiradi. Beshinchidan, tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan xarakter tarbiyasi va ijtimoiy oʻrganish nazariyalari shuni koʻrsatadiki, darslik matnining tarbiyaviy samarasi uning faqat axloqiy bilim berishida emas, balki oʻquvchida hissiy munosabat uygʻotishi va amalda taqlid qilish uchun yorqin namuna (qahramon obrazi) taqdim etishida namoyon boʻladi. Shu bois darslik mualliflari matn tanlashda ushbu uch omilni bilim, tuygʻu va xulqiy namuna – birgalikda hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Takliflar. Darsliklarda milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar ulushini oshirish; illustratsiya va matn uygʻunligini taʼminlash, oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar sonini koʻpaytirish, darsliklarni ishlab chiqishda pedagogik va psixologik yondashuvlarni integratsiya qilish; zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uygʻunlashgan darslik modellarini yaratish; darsliklarda badiiy matnlar ulushini oshirish, illustratsiyalarni mazmunga mos tanlash, husni xulqni shakllantiruvchi maxsus mashqlar ishlab chiqish; darsliklarni yaratishda psixologik omillarni hisobga olish, darslik matnlarini loyihalashda xarakter tarbiyasi nazariyasining bilim–tuygʻu–xatti-harakat modelidan metodik vosita sifatida foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayeva D. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, “Fan”, 2020, 128-bet.

(2). Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977, 332 p.

(3). Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York, Bantam Books, 1991, 242 p.

(4). Mayer R.E. Multimedia Learning. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, 232 p.

(5). Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 464 bet.

(6). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarori. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

(7). Qodirov B. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2010, 256 bet.

(8). Rahimov R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent, 2015, 180 bet.

To‘rayev Farxodjon Farmonovich (Alfraganus universiteti “Matematika va fizika” kafedrasi dotsenti v.b. (PhD); E-mail: farhodjon9618@mail.ru; https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332)

BO‘AJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MANTIQ ELEMENTLARIGA OID TUSHUNCHALARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiq elementlariga oid tushunchalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’limda matematik ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan pedagoglarni tayyorlashda mantiq elementlarini puxta o‘zlashtirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda hukm, mulohaza, xulosa chiqarish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, analogiya va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash kabi mantiq elementlarining mazmuni hamda ularni bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish metodikasi tahlil qilingan.*

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida mantiq elementlarini o‘qitishda muammoli ta’lim, interfaol metodlar, mantiqiy masalalar, amaliy topshiriqlar va kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda samarali qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, metodik kompetentligini oshirish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga tayyorligini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Taklif etilgan metodika pedagogika oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, mantiq elementlari, mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kasbiy kompetentlik, metodik kompetentlik, muammoli vaziyat, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar.*

Тураев Фарходжон Фармонович (Alfraganus University, кафедра «Математика и физика», и.о. доцента (PhD); E-mail: farhodjon9618@mail.ru; https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332)

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ЭЛЕМЕНТАХ ЛОГИКИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье раскрываются научно-теоретические и методические основы развития представлений о элементах логики у будущих учителей начальных классов на основе компетентностного подхода. Обосновывается значение глубокого усвоения элементов логики для повышения эффективности математического образования в начальной школе, развития логического мышления учащихся и подготовки педагогов, отвечающих требованиям современного образования. В исследовании анализируются содержание основных элементов логики, таких как суждение, высказывание, умозаключение, сравнение, классификация, обобщение, аналогия и выявление логических связей, а также методика их формирования у будущих учителей начальных классов.*

Кроме того, рассматриваются возможности реализации компетентностного подхода при обучении элементам логики с использованием проблемного обучения, интерактивных методов, ло-